

“QIYOMAT” ROMANIDA INSONIY FAZILATLARNING AKS ETISHI

Alimardonova Mahliyo O‘rol qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17855844>

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Qiyomat” romanida insoniy fazilatlarining badiiy talqini, inson xarakterining murakkab qatlamlari va axloqiy tanlovlar tahlil qilinadi. Asarda keltirilgan personajlar orqali ezgulik va yovuzlikning ichki kurashi tasvirlangani ilmiy asosda yoritiladi.

Muallifning badiiy mahorati, obrazlar tizimi va psixologik tasvir orqali insonning ijtimoiy hamda ma’naviy mohiyati ochib beriladi. Romandagi axloqiy qarama-qarshiliklar jamiyat hayotidagi real jarayonlar bilan bog‘lanib o‘rganiladi. Asarda vijdon, adolat, sabr, mehr, insonparvarlik kabi fazilatlarining o‘zaro uyg‘unligi ilmiy jihatdan sharhlanadi. Tadqiqot natijalarida insoniy fazilatlar badiiy tasvirning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini belgilashi isbotlanadi.

Maqola roman personajlari misolida ijtimoiy-ruhiy jarayonlarning badiiy ifodasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Qiyomat romani, insoniy fazilatlar, badiiy tasvir, obrazlar tahlili, ma’naviy qadriyatlar, axloqiy tanlov, psixologik tasvir, ruhiy ziddiyat, ezgulik va yovuzlik, badiiy konsepsiya.

«ОТРАЖЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ КАЧЕСТВ В РОМАНЕ “КЫЙОМАТ”

Аннотация. В данной статье анализируется художественная интерпретация человеческих качеств в романе «Кийомат», а также сложная структура человеческого характера и моральный выбор героев. Научно обосновано раскрывается внутренняя борьба добра и зла, показанная через систему персонажей произведения. Подчёркивается мастерство автора в создании художественных образов, психологических описаний и в раскрытии социальной и духовной сути человека. Нравственные противоречия, представленные в романе, рассматриваются в связи с реальными социальными процессами. Научно обосновано освещается гармония таких качеств, как совесть, справедливость, терпение, милосердие и гуманизм. В исследовании доказывается, что человеческие добродетели определяют основную идейную направленность художественного содержания романа. В статье анализируется художественное выражение социально-психологических процессов на примере персонажей произведения.

Ключевые слова: роман «Кийомат», человеческие качества, художественное изображение, анализ образов, духовные ценности, моральный выбор, психологическое описание, внутренние противоречия, добро и зло, художественная концепция.

“REFLECTION OF HUMAN QUALITIES IN THE NOVEL “QIYOMAT”

Annotation. This article examines the artistic interpretation of human virtues in the novel “Qiyomat”, focusing on the complex layers of human character and moral choices. It scientifically explores the inner struggle between good and evil depicted through the novel’s system of characters. The author’s artistic mastery, use of imagery, and psychological depiction in revealing the social and spiritual essence of a human being are emphasized. The moral contradictions presented in the novel are analyzed in connection with real social processes. The harmony of such qualities as conscience, justice, patience, compassion, and humanism is discussed from a scholarly perspective.

The study demonstrates that human virtues shape the main ideological direction of the novel's artistic conception. The article analyzes the artistic expression of socio-psychological processes through the characters of the work.

Keywords: *Qiyomat novel, human virtues, artistic depiction, character analysis, spiritual values, moral choice, psychological description, inner conflict, good and evil, artistic conception.*

KIRISH. “Qiyomat” romani o‘zbek adabiyotida inson ruhiyati, axloqiy qarorlar va ma’naviy qadriyatlar masalasini o‘tkir badiiy tahlil etgan asarlardan biridir. Asar nafaqat voqealar tizimi, balki ichki falsafasi, insonning ruhiy olamiga kirib borishi bilan ham ahamiyatlidir.

Romanda insonning axloqiy tanlovlari, ijtimoiy bosim ostidagi ruhiy iztiroblari va vijdon bilan kurashi asosiy mavzu sifatida yoritiladi. Adib inson tabiatining murakkabligini voqealar rivoji, dialoglar va ichki kechinmalar orqali chuqur ochib beradi. Asar qahramonlari turli sinovlar orqali o‘zlaridagi asl fazilatlarni namoyon etadilar. “Qiyomat” romanida tasvirlangan ijtimoiy muhit va undagi ziddiyatlar ham insoniy fazilatlarning shakllanishi va sinovdan o‘tishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Muallif badiiy tafakkur yordamida hayotiy haqiqatni chuqur ochib berishni maqsad qilgan. Asar o‘quvchini insonning ichki dunyosini o‘rganishga, o‘zining ham axloqiy pozitsiyasini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Romandagi ruhiy holatlar, axloqiy mezonlar va ijtimoiy haqiqat o‘zaro uzviy bog‘liq ravishda tahlil etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi jamiyatda ham insoniy fazilatlar masalasi o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Shu bois romandagi obrazlar orqali badiiy aks etgan fazilatlar zamonaviy ijtimoiy hayotga ham tegishli bo‘lgan xulosalarni beradi. Mazkur maqola aynan shu jihatlarni ilmiy asosda o‘rganishni maqsad qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavzuga oid adabiyotlarni o‘rganish “Qiyomat” romanining insoniy fazilatlar masalasini keng falsafiy talqin qilganini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotshunoslari tomonidan romanning badiiy konsepsiyasi, ruhiy tasvirlari va obrazlar tizimi bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tahliliy manbalarda insoniy fazilatlar adabiyotda konflikt, dramatism va psixologizm orqali ifodalanishi ta’kidlanadi. Muallifning adabiy uslubi, ayniqsa, ichki monolog va psixologik tasvirni keng qo‘llashi axloqiy mazmunni kuchaytiruvchi asosiy vosita sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, roman personajlarida ruhiy ziddiyatlar va vijdon azobi inson fazilatlarining ochilishida markaziy o‘rin tutadi. Asar bo‘yicha ilmiy maqolalar badiiy voqelikda ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi falsafiy kurash doimo mavjud bo‘lib kelganini asoslaydi.

So‘nggi yuz yillikning dunyoga mashhur yozuvchilaridan biri, qardosh qirg‘iz adabiyotining yetakchi namoyandasi Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” (“Kunda”) romani ilk marotaba 1986-yilda rus tilida nashr etilgan. Biroz o‘tib, rus tilidan qirg‘izchaga tarjima qilingan.

Roman avval o‘zbekchaga “Kunda” nomi bilan tarjima qilinib, 1988-yilda “Sharq yulduzi” jurnalining 8, 9, 10-sonlarida e’lon qilingan. Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romanida ezgulik va oliyjanoblikning, yaxshilik va to‘g‘rilikning, adolat va haqgo‘ylikning, Qiyomat qoyim darajasiga tushayotgan holatlari tabiat, jamiyat, inson va iymon muammolarini aks ettirish orqali ko‘rsatiladi.

“Qiyomat” bir nechta bir-biriga bog‘lanmagan voqealardan tashkil topgan. Voqealarda faqatgina bir juft bo‘ri – Akbara va Toshchaynar zanjir vazifasini bajaradi. Voqealar bo‘rilarning achchiq taqdiri ustiga qurilgan. Romandagi har bir syujet qahramonlarining taqdiri fojia bilan tugaydi: mehnatkash cho‘pon Bo‘ston bilan bog‘liq voqealar, u kutilmaganda o‘z o‘g‘lini otib qo‘yishi, keyin esa qahr-g‘azab bilan piyonista cho‘pon Bozorboyni otib o‘ldirishi va o‘z hayotiga nuqta qo‘yishi, syujetlardan birida hikoya qilingan Avdiy Kallistratov taqdiri, asardagi yana bir mustaqil syujet – “Oltovlon va yettinchi” hikoyasi – bari Qiyomat qoyim tarzida fojiaviy yakun topgan. Yozuvchi asarni hikoya qilarkan, bir syujetdan boshqasiga, bir zamon va makondan boshqa bir zamon va makonga shunchalik mohirona silliqlik bilan o‘tganki, bunday ko‘chishlar asarni o‘qiyotgan odamga hech qanday o‘ng‘asizlik tug‘dirmaydi. Bu, albatta, yozuvchining yuksak mahoratidan darak beradi.

Ushbu maqolada metodologik asos sifatida komparativ tahlil, psixologik tahlil, obrazlar strukturasini o‘rganish va badiiy-falsafiy yondashuvlardan foydalaniladi. Matnni qahramonlar xarakteri bilan bog‘lab tadqiq qilish badiiy g‘oyaning mazmunini chuqurroq ochishga yordam beradi. Shuningdek, konfliktologik tahlil orqali asardagi ziddiyatlar tizimi va ularning insoniy fazilatlardagi rolini aniqlash mumkin bo‘ladi. Metodologiya romanning ijtimoiy tarixiy zaminini ham hisobga olgan holda tahlil olib borishni ko‘zda tutadi. Personajlar nutqi, ichki monologlar va ularning xatti-harakatlari orqali fazilatlarning qanday namoyon bo‘lishi tizimli ko‘rib chiqiladi.

Bu yondashuv romanning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishini aniqlashga imkon beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Qiyomat” romanida insoniy fazilatlar voqealar rivoji bilan uzviy bog‘liq holda ochib berilgan. Asarda qahramonlar turli sinovlar orqali o‘zlaridagi vijdon, sabr, adolat va mehr kabi fazilatlarni namoyon etadilar. Ba’zi personajlar esa yovuzlik, qo‘rqoqlik va beparvolik orqali axloqiy tanazzulga yuz tutgan holatda tasvirlanadi. Bu kontrast roman g‘oyasini ochishda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi. Psixologik tasvirlarning kuchaytirilganligi qahramonlarning ichki dunyosida kechayotgan ruhiy kurashni yanada chuqurroq ifodalaydi. Muallif insonning o‘z xatosini anglash jarayonini ham badiiy mahorat bilan yoritadi. Har bir obrazning o‘ziga xos fazilati yoki kamchiligi jamiyatdagi umumiy axloqiy muhitning bir bo‘lagi sifatida baholanadi.

Roman tahlili shuni ko‘rsatdiki, insonning axloqiy tanlovi ko‘pincha uning ruhiy holati, ijtimoiy sharoit va ma’naviy tarbiyasi bilan belgilanadi. Asar qahramonlari orqali muallif insoniyatning tub mohiyatida ezgulik sari intilish mavjudligini ta’kidlaydi. Yovuzlikning kuchayishi esa ma’naviy bo‘shliq, qo‘rquv yoki ijtimoiy adolatsizlik oqibati sifatida talqin qilinadi. Tahlillar natijasida roman ko‘tarayotgan asosiy g‘oya — insonning o‘z mohiyatini anglash, vijdonan pok yashash va hayotning ma’nosini topish ekani aniqlandi. Bu jihatlar asarni nafaqat badiiy, balki falsafiy ahamiyatga ega ijod namunasi sifatida ko‘rsatadi.

XULOSA.

“Qiyomat” romanida ezgulik va insoniylikning, yaxshilik va to‘g‘rilikning, adolat va haqgo‘ylikning, Qiyomat qoyim darajasiga tushayotgan holatlari tabiat, jamiyat, inson va imyon muammolarini aks ettirish orqali ochib berilgan. Tabiatni poymol etish tufayli ro‘y berayotgan qiyomat darajasidagi payxonliklar, xunrezliklarni amalga oshirayotgan ijtimoiy kuchlar, razil odamlar bor.

Akbara bilan Toshchaynarga tabiatda yashash uchun hatto boshpana qolmasligi, tog‘da noyob konga yo‘l ochilishi munosabati bilan ularning uyasi joylashgan qamishzorga o‘t qo‘yilishi tufayli besh bo‘ri bolasining nobud bo‘lishi, bo‘rilar toqqa qochgandan so‘ng esa bu yerda yangi dunyoga kelgan to‘rt bo‘ri bolasining endi razil, insoniy xislatlardan mahrum Bozorboy tomonidan o‘g‘irlanib, aroq olish uchun sotib yuborilishida ularni ko‘rish mumkin. Asardagi eng murakkab obraz Avdiy Kallistratovdir. U Xudoga, dinga chin dildan ishonadi. Biroq uning fikricha, shu vaqtgacha insoniyat tafakkurida bo‘lib kelgan Xudo eskirgan, shu bois uni yangilash, zamondosh Xudo yaratish kerak. Bu fikridan, o‘zi aytishicha, o‘tda kuydirsalar ham qaytmoqchi emas. “Asr bo‘yi qotib qolgan fikrlarni o‘zgartirish, aqidabozlikdan qutulib, inson ruhiga Xudoni anglashda hurlik berish va Xudoni inson borlig‘ining eng oliy zuhroti deb bilish” Avdiyning din va Xudo haqidagi qarashlarining asosini tashkil etadi. Avdiy murakkab obrazdir. Aytmatov asarda ezgulik mohiyatini rang-barang: ilohiy, falsafiy, insonparvar asoslar bilan chambarchas aloqadorlikda tasvirlay olgan mahoratli, ayni paytda chuqur bilim va mantiqqa ega yozuvchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Aytmatov, Ch.** *Qiyomat* – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2019.
2. **Mahmudov, N.** Chingiz Aytmatov ijodida inson va jamiyat masalalari. – Toshkent: Fan, 2020.
3. **Rasulov, M.** Aytmatov asarlarida falsafiy tafakkurning badiiy talqini. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020.
4. **Abdullayeva, D.** “Qiyomat” romanida ekologik muammolar tasviri. // *O‘zbek tili va adabiyoti*, 2022, №3.
5. **Aitmatov, Ch.** *The Place of the Skull (The Scaffold)*. – London: Granta Books, 2021
6. Брагина, В. Н. Философский аспект творчества Чингиза Айтматова. – Москва: Наука, 2022.